

O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR SIYOSATI (1991–2024)

Xolnazarova O‘g‘ilshod

Termiz davlat universiteti magistranti

E-mail: xolnazarovaogilshod30@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo munosabatlar siyosati (1991–2024) xronologik va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Konstitutsiya va sohaviy qonunlar negizida shakllangan huquqiy model hamda davlat institutlari faoliyatining asosiy bosqichlari yoritiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, mustaqillik davridagi diniy-milliy siyosat uch bosqichli rivojlanish modeli asosida umumlashtirilib, 2017-yildan keyingi islohotlar alohida tarixiy bosqich sifatida asoslab beriladi. Shuningdek, diniy tashkilotlar va milliy madaniy markazlar faoliyatidagi o‘shish dinamikasi tarixiy-statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik siyosati huquqiy tenglik, institutsional boshqaruv va ijtimoiy muvozanat tamoyillariga tayanib izchil rivojlanganini ko‘rsatadi. Mazkur siyosat konfessiyalararo hamjihatlik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *diniy bag‘rikenglik, millatlararo munosabatlar, konfessiyalararo totuvlik, vijdon erkinligi, konstitutsiyaviy kafolatlar, davlat siyosati, huquqiy asoslar, milliy madaniy markazlar, diniy tashkilotlar, ijtimoiy barqarorlik.*

KIRISH

XXI asr boshlarida dunyo miqyosida diniy bag‘rikenglik va millatlararo munosabatlar masalasi global xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va davlatlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim muammolardan biriga aylandi. So‘nggi o‘n yilliklarda diniy va etnik ziddiyatlar Yaqin Sharq, Afrika, Janubiy Osiyo hamda Yevropaning ayrim hududlarida keskinlashib, millionlab insonlarning hayoti va ijtimoiy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2000–2023 yillar oralig‘ida dunyo bo‘yicha qurolli mojarolarning qariyb 60 foizi etnik yoki dini omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Ushbu holat diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalasini nafaqat siyosiy

yoki huquqiy, balki tarixiy jarayon sifatida chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda¹.

Respublikamiz hududi tarixan turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar, dinlar va millatlarning o‘zaro muloqoti shakllangan makon bo‘lib kelgan. Qadimdan bu hududda islom, xristianlik, yahudiylik va boshqa diniy konfessiyalar vakillari, shuningdek, turli etnik guruhlar bir makonda tinch-totuv yashab kelganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Mustaqillik yillarida ushbu tarixiy tajriba yangi siyosiy-huquqiy sharoitda qayta talqin qilinib, davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi diniy va millatlararo munosabatlar sohasida tub burilish yasadi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida barcha fuqarolarning millati, dini, tili va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar teng huquqliligi mustahkamlab qo‘yildi, 31-moddada esa vijdon erkinligi kafolatlandi². Ushbu konstitutsiyaviy normalar mustaqil O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlashning huquqiy asosini yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich saqlanib qolgan holda, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun 150 dan ortiq milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. 1991-yilda respublikada atigi 95 ta diniy tashkilot mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 2 300 dan oshdi. Jumladan, musulmon, pravoslav, katolik, protestant, yahudiy, buddaviy va boshqa konfessiyalar erkin faoliyat yuritmoqda. Mazkur statistik ma’lumotlar mustaqillik yillarida diniy bag‘rikenglik siyosatining amaliy natijalarini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab diniy-milliy siyosat sohasida yangi bosqich boshlandi. Diniy sohada cheklovlarni yumshatish, fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash, diniy ta’lim va konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish bo‘yicha qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. 2018–2023 yillar davomida diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari soddalashtirildi, diniy adabiyotlar bilan ishlashda liberallashtirish choralari ko‘rildi, diniy sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar va davlat o‘rtasidagi muloqot kuchaytirildi. 2023-yilda vijdon erkinligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari yangilangan tahrirda takomillashtirildi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika

¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *World Report on Religious Freedom and Conflict Prevention*. — New York: United Nations Publications, 2023.

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 1992 (2023-yilgi tahrir).

ma'lumotlari, ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar (BMT va boshqalar) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar asosiy manba sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot usullari. Maqolada tarixiylik va xronologik yondashuv asosida 1991–2024 yillarda diniy-milliy siyosatning shakllanish va rivojlanish bosqichlari ajratildi. Jarayonning mazmun-mohiyatini yoritishda tarixiy-taqqoslash, tizimli tahlil, hujjatshunoslik (normativ hujjatlar tahlili) hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar dinamikasi esa taqqosiy tahlil orqali izohlandi.

NATIJALAR

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon ijtimoiy hayotning eng muhim yo'nalishlaridan biri — diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash bo'lib kelmoqda. Mustaqillik arafasida 1991-yilda O'zbekiston aholisi taxminan 20,7 million kishini tashkil etgan, etnik tarkib esa keng rang-baranglikni aks ettirgan. O'sha davrda quyidagicha etnik holat qayd etilgan: o'zbeklar ~71–72%, ruslar ~8,3%, tojiklar ~4,7%, qozoqlar ~4,1%, qoraqalpoqlar ~2,1%, tatarlar ~2,0% va boshqa bir qator millatlar (koreyslar, ukrainlar, yahudiylar va boshqalar) jami ~4–5%ni tashkil etgan. Shu tariqa, mustaqillikka erishish davrida mamlakatda 120 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilgan.



1-rasm.“O'zbekistonda etnik tarkibning o'zgarishi (1991–2024)”³

Diniy mansublik bo'yicha ham 1991-yilda aholining aksariyati — taxminan 88–89% — islom diniga mansub bo'lsa, qolgan qismi xristianlik (pravoslav va boshqa konfessiyalar) hamda boshqa dinlarni e'tiqod qiluvchi guruhlardan iborat bo'lgan. Shu davrda diniy hayot deyarli rasmiy statistik tizimda aks etmagan, biroq u jamiyatning madaniy-tarixiy hayotida chuqur ildiz otgan edi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyat sifatini saqlagan holda, diniy

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (1991–2024).

va milliy masalalarni nafaqat deklarativ darajada, balki huquqiy-institutsional asosda tartibga solishga kirishdi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'i nazar tengligi, vijdon erkinligi va kamsitmaslik prinsiplari mustahkamlangan. Keyinchalik "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun kabi maxsus hujjatlar qabul qilinib, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi belgilandi va konfessiyalararo muvozanatni saqlashga qaratilgan normativ mexanizmlar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda ham O'zbekiston aholisi etnik va diniy xilma-xillikni saqlab kelmoqda. 2023–2024-yillar statistikasiga ko'ra, aholining umumiy soni taxminan 36,5–37 million doirasida baholanadi. Unda o'zbeklar ulushi ~84–85%, tojiklar ~4,5–5%, qozoqlar ~2,5–3%, qoraqalpoqlar ~2%, ruslar ~2%, qolgan millatlar (tatarlar, koreyslar, ukrainlar va boshqalar) esa jami ~4–5%ni tashkil etadi. Diniy hayot doirasida esa islom diniga mansub shaxslar ~90–92%, xristian asosli konfessiya vakillari ~7–8%, boshqa dinlar (yahudiylik, buddizm, bahoiylik va b.) ~1% atrofida hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 16 dan ortiq diniy konfessiya va turli e'tiqodli guruhlar faoliyat yuritadi.

1991–1995-yillar Respublikamizda diniy bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar tizimini shakllantirish zarurati eng keskin sezilgan davr sifatida ajralib turadi. Bu davrning o'ziga xosligi shundaki, jamiyat bir vaqtning o'zida ikki qarama-qarshi jarayonni boshdan kechirdi: bir tomondan, sovet davridan meros bo'lib qolgan cheklovchi va ma'muriy boshqaruv an'analari hali to'liq bartaraf etilmagan edi; ikkinchi tomondan esa mustaqillik natijasida diniy hayot va milliy o'zlik masalalari ijtimoiy maydonga faol qaytdi. Shu sababli dastlabki yillarda davlat siyosati uchun eng muhim vazifa erkinlikni kengaytirish bilan birga, barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Sovet davrida din masalasi, asosan, davlat tomonidan cheklash va nazorat qilish vositalari orqali boshqarilgan; diniy institutlar ijtimoiy hayotdan siqib chiqarilgan, diniy faoliyatning ko'plab ko'rinishlari rasmiy doiradan tashqariga surilgan edi. Milliy masala ham rasmiy ideologiya doirasida izohlanib, "xalq do'stligi" shiori ostida muammolar ko'pincha umumlashtirilgan ko'rinishda talqin qilinib, etnik guruhlarining o'ziga xos ehtiyojlari va tarixiy xotira masalalari chuqur muhokama maydoniga chiqmasdi. Shunday sharoitda diniy va etnik xilma-xillik real ijtimoiy hodisa bo'lib turgan bo'lsa-da, u ochiq institutlar va shaffof me'yorlar asosida boshqarilmagan, ko'p jihatdan "ko'rinmas ijtimoiy qatlam" sifatida saqlanib kelgan.⁴

⁴ "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun. — Toshkent, 1998.

Mustaqillikdan keyin vaziyat tubdan o'zgardi. Diniy va milliy o'zlik masalalari ijtimoiy hayotda tabiiy ravishda faollashdi: jamiyatda e'tiqodga qaytish, diniy an'analar va marosimlarning ommalashuvi, diniy ta'lim va diniy tashkilotlarga qiziqish kuchaydi. Shu bilan birga, mustaqil davlat qurilishi jarayoni milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga qaytish va fuqarolik birlikni shakllantirish kabi yirik yo'nalishlarni kun tartibiga olib chiqdi. Aynan mana shu ochiqlashuv diniy-milliy sohani "o'z-o'zidan tartibga tushadigan" maydon emas, balki aniq me'yor va institutlar bilan boshqariladigan ijtimoiy soha sifatida ko'rish zaruratini yuzaga keltirdi. Diniy faollikning keskin ortishi bilan birga, postsovet hududida kuzatilgan umumiy transformatsion holatlar ham O'zbekiston uchun muhim fon vazifasini o'tadi. 1990-yillar boshida ayrim mintaqalarda etnik mojarolar kuchaygani, chegaralar va siyosiy tuzum o'zgarishi fonida jamoaviy identitet masalalari keskinlashgani, migratsion jarayonlar kuchaygani yangi mustaqil davlatlar oldida diniy va etnik munosabatlarni boshqarish masalasini xavfsizlik va barqarorlik bilan bevosita bog'ladi. Shu ma'noda, O'zbekistonda ham diniy va milliy xilma-xillikni boshqarishda faqat erkinlikni e'lon qilish yetarli emasligi, balki erkinlikning huquqiy chegaralari, ijtimoiy muvozanat va profilaktik mexanizmlar zarurligi anglab yetildi⁵.

Mazkur davrda davlat oldida turgan asosiy masala quyidagicha ifodalanadi: diniy va milliy erkinlikni kengaytirgan holda ijtimoiy barqarorlikni qanday ta'minlash mumkin edi? Bu savolning mohiyati shundan iborat ediki, diniy hayotni haddan tashqari cheklash e'tiqod erkinligiga zid bo'lishi mumkin, diniy sohani butunlay tartibga solmasdan qoldirish esa turli radikal talqinlar, konfessiyalararo muvozanatning buzilishi yoki diniy omilning siyosiylashuvi kabi xavflarni kuchaytirishi ehtimolini yuzaga keltirardi. Millatlararo munosabatlar sohasida ham shunga o'xshash muammoli vaziyat mavjud edi: ko'p millatli jamiyat sharoitida fuqarolik birlikni mustahkamlash, kamsitmaslikni amalda ta'minlash, etnik guruhlararo ishonchni saqlash va milliy masalani siyosiy qarama-qarshilik manbaiga aylantirmaslik zarur edi.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.



2-rasm. Mustaqillik davrida diniy bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar siyosatining shakllanish bosqichlari⁶

Shuning uchun 1991–1995-yillar diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalarini yangi tarixiy sharoitda qayta belgilash bosqichi bo'lib, keyingi yillarda shakllangan konstitutsiyaviy tamoyillar, maxsus qonuniy baza va institutsional mexanizmlar uchun zarur ijtimoiy-siyosiy ehtiyojni yaratdi. Aynan shu davr islohotlarning “ichki mantiqi”ni belgiladi: diniy va milliy xilma-xillikni cheklash emas, balki huquqiy tenglik, muvozanat va barqarorlikka tayangan boshqaruv tamoyillari orqali tartibga solish ehtiyoji paydo bo'ldi.⁷

Diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan dastlabki islohotlar. 1990-yillarning boshlarida vujudga kelgan diniy va milliy faollik holati davlatni diniy sohani tubdan qayta tartibga solish zarurati bilan yuzma-yuz keltirdi. Avvalgi davrda cheklangan va

yopiq shaklda mavjud bo'lgan diniy hayotning ochiq ijtimoiy maydonga chiqishi yangi savolni kun tartibiga olib chiqdi: diniy erkinlikni ta'minlash bilan bir vaqtda konfessiyalararo muvozanat va ijtimoiy barqarorlikni qanday saqlab qolish mumkin edi? Aynan mana shu tarixiy ehtiyoj 1990-yillarda diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan dastlabki islohotlarning asosiy mazmunini belgilab berdi.

Dastlabki islohotlarning markazida vijdon erkinligini e'tirof etish va diniy hayotni huquqiy maydonga olib chiqish masalasi turdi. Bu jarayon dini jamiyatdan siqib chiqarish yoki uni siyosiy hayotning ustuvor kuchiga aylantirish yo'li bilan emas, balki uni aniq huquqiy chegaralar doirasida tartibga solish orqali amalga oshirildi. Tarixiy nuqtai nazardan, bu yondashuv diniy faollikning keskin o'sishi fonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan beqarorlik xavflarini oldindan hisobga olishga asoslangan edi. Shu sababli diniy erkinlik mutlaq erkinlik sifatida emas, balki jamiyat manfaatlari va boshqa fuqarolarning huquqlari bilan muvozanatda talqin qilindi. Mazkur davrda diniy tashkilotlarning ochiq va qonuniy faoliyat yurita boshlashi muhim o'zgarish bo'ldi. Ilgari norasmiy yoki cheklangan sharoitda mavjud bo'lgan

⁶ O'zbekiston Respublikasining mustaqillik davridagi diniy siyosati va millatlararo munosabatlar sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-tahliliy adabiyotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ Муртазаева П.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Т., 2010

diniy jamoalar huquqiy subyekt sifatida tan olindi, ularning faoliyati qonuniy asosga ko'chirildi. Tarixiy jihatdan bu jarayon diniy hayotni "yashirin ijtimoiy qatlam"dan chiqarib, uni davlat va jamiyat bilan ochiq munosabatlar tizimiga kiritdi. Natijada diniy tashkilotlar nazoratsiz muhitda emas, balki huquqiy me'yorlar asosida faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutlarga aylandi. Bu esa konfessiyalararo munosabatlarda oshkoralik va javobgarlik mexanizmlarining shakllanishiga xizmat qildi.

1990-yillarda olib borilgan siyosatning yana bir muhim jihati *konfessiyalararo muvozanatni saqlashga* qaratilgan davlat yondashuvi bilan bog'liq edi. Diniy xilma-xillik sharoitida biror konfessiyaga ustunlik berish yoki boshqalarini cheklash jamiyatda ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkinligi anglab yetildi. Shu bois davlat siyosati konfessiyalar tengligi, diniy mansublik asosida kamsitishga yo'l qo'ymaslik va diniy raqobatni siyosiy qarama-qarshilik darajasiga olib chiqmaslik tamoyillariga tayandi. Tarixiy jarayon sifatida bu yondashuv diniy bag'rikenglikni majburiy murosa yoki ideologik shior emas, balki barqarorlikni ta'minlovchi huquqiy mexanizm sifatida shakllantirdi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, *diniy bag'rikenglikni ta'minlash nazoratni kuchaytirish* orqali emas, balki huquqiy tartibga solish yo'li bilan amalga oshirildi. Diniy hayot ustidan qat'iy repressiv choralar qo'llashdan voz kechilib, uning o'rniga diniy faoliyatning qonuniy chegaralari belgilandi. Bu ehtiyotkor yondashuv tarixiy jihatdan o'zini oqladi, chunki u bir tomondan diniy erkinlikni ta'minladi, ikkinchi tomondan esa radikal va destruktiv oqimlarning ijtimoiy maydonda erkin tarqalishiga to'sqinlik qiluvchi mexanizmlarni yaratdi.

MUHOKAMA. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalasi XXI asr boshlarida global xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik yo'nalishga aylangan. Bu holat, bir tomondan, dunyoning ayrim mintaqalarida diniy va etnik ziddiyatlarning kuchayishi bilan izohlanadi, ikkinchi tomondan esa ko'p millatli jamiyatlarda barqaror taraqqiyot uchun bag'rikenglik siyosati muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'layotganini anglatadi. Huntington (1996) sivilizatsiyalararo qarama-qarshiliklar xavfi kuchayishini ta'kidlagan bo'lsa, Kymlicka (1995) ko'p madaniyatli jamiyatlarda tenglik va huquqiy kafolatlar muvozanati barqarorlikning asosiy sharti ekanini asoslaydi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustaqillikdan keyingi davrda diniy bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar siyosati "tarixiy meros + huquqiy kafolat + institutsional boshqaruv" uchligi asosida shakllangan. Konstitutsiyada fuqarolarning tengligi va vijdon erkinligi mustahkamlanganligi (1992) diniy-milliy sohada huquqiy asos yaratgan bo'lib, bu jarayonni tarixiy jihatdan yangi davlat

qurilishi sharoitida fuqarolik birlikni mustahkamlash ehtiyoji bilan izohlash mumkin. Casanova (1994) zamonaviy jamiyatlarda din omilining ijtimoiy maydonga qaytishi “tabiiy tarixiy jarayon” ekanini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda diniy hayotning faollashuvi ham jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy an’analari va mustaqillik davrida ochiqlashuv bilan bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘lgan.

Maqolada keltirilgan statistik ma’lumotlar diniy bag‘rikenglik siyosatining amaliy natijalarini ko‘rsatadi: diniy tashkilotlar sonining 1991-yildagi 95 tadan 2024-yilda 2300 tadan oshgani hamda milliy madaniy markazlar sonining 150 dan ortiqni tashkil etishi jamiyatdagi diniy va etnik xilma-xillikning huquqiy-institutsional asosda boshqarilayotganini bildiradi. Bu holat Putnam (2007) tomonidan ilgari surilgan “xilma-xillik sharoitida ijtimoiy ishonchni mustahkamlash mexanizmlari” g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi. Ya’ni xilma-xillikning o‘zi xavf emas, balki uni boshqarish modeli muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda diniy erkinlik va xavfsizlik muvozanati masalasida turli yondashuvlar mavjud. Fox (2008) davlat va din munosabatlarida normativ boshqaruvning turli modellari mavjudligini, ayrim holatlarda qat’iy tartibga solish ijtimoiy barqarorlikni ushlab turishi mumkinligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, An-Na’im (2008) diniy erkinlikni ta’minlashda huquqiy mexanizmlar bilan birga ochiq muloqot va ijtimoiy integratsiya kuchli bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar O‘zbekiston tajribasini tahlil qilishda ham muhim: 1990-yillarda ehtiyotkor va bosqichma-bosqich yondashuv ustun bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yildan boshlab liberallashtirish va konfessiyalararo muloqotni kuchaytirish bilan bog‘liq yangi bosqich yuzaga kelgani kuzatiladi.

Muhokama natijalari “xususiydan umumiyga” tamoyili asosida shuni umumlashtirishga olib keladiki, O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik siyosati tarixiy jarayon sifatida uch bosqichda namoyon bo‘lgan: (1) mustaqillikning dastlabki yillarida huquqiy asoslarni yaratish va barqarorlikni saqlash, (2) institutlar va amaliy mexanizmlarni kengaytirish, (3) 2017-yildan boshlab islohotlarni liberallashtirish va ochiqlikni kuchaytirish. Ushbu tajriba diniy-milliy munosabatlarni boshqarishda “huquqiy tenglik + institutsional hamkorlik + ijtimoiy profilaktika” tamoyillari ustuvor bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Mazkur tahlilning amaliy ahamiyati shundaki, u tarixiy tajribani tizimli o‘rganish orqali diniy-milliy siyosatning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Xususan, milliy madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, konfessiyalararo muloqotni kuchaytirish, diniy savodxonlikni oshirish va

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolada O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo munosabatlar siyosatining tarixiy taraqqiyoti (1991–2024) tahlil qilindi hamda uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy omillari yoritildi. Tadqiqot natijalari mustaqillik yillarida diniy va milliy xilma-xillikni boshqarish jarayoni huquqiy tenglik va institutsional mexanizmlar orqali bosqichma-bosqich takomillashganini ko‘rsatdi. Shuningdek, 2017-yildan keyingi islohotlar ushbu sohada ochiqlik va muloqotni kuchaytirgan yangi bosqich sifatida baholandi. Umuman olganda, O‘zbekiston tajribasi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikning muhim tarixiy omili ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (Янги тахрири). –Т., 2023 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т., 2021 й.
3. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони (07.02.2017 й., ПФ-4947-сон).
4. “Миллатлараро муносабатлар соҳасида Ўзбекистон Республикасида давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”. - Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони (15.11. 2019 й., ПФ-5876-сон).
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *World Report on Religious Freedom and Conflict Prevention*. — New York: United Nations Publications, 2023.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
7. БекмуродовМ. Ўзбек менталитети. – Тошкент, 2001.- 95 б.
8. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu Matbuot-konsart, 2009.
9. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Т., 2010.
10. Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. – Тошкент:Hamkornashr, 2021